

МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ



Илимий-методикалық журнал

2024

1/2-сан

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоғарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ғәм хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы ғуўалық берилген.*

1/2-сан 2024

март

Шөлкемлестіріушілер:

*Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендириу Министрлиги,
ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы*

Редактор:
А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ
Айтмурат АЛЬНИЯЗОВ
Сапардурды АБАЕВ
Адхамжон АБДУРАШИТОВ
ХАЙРУЛЛА АЛЯМИНОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ
Интизар АБДИРИМОВА
Тўлкин АЛЛАЁРОВ
Марифжон АХМЕДОВ
Умида БАҲАДИРОВА
Фархад БАБАШЕВ
Ботир БОЙМЕТОВ
Гулзода БОЙМУРОДОВА
Шахло БОТИРОВА
Маманазар ДЖУМАЕВ
Асқар ДЖУМАШЕВ
Алишер ЖУМАНОВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА
Холбой ИБРАГИМОВ
Шохида ИСТАМОВА
Умида ИБРАГИМОВА
Лола ИСРОИЛОВА
Меруерт ПАЗЫЛОВА
Асқарбай НИЯЗОВ
Сабит НУРЖАНОВ
Захия НАРИМБЕТОВА
Хушбоқ НОРБЎТАЕВ
Улфат МАҲҚАМОВ
Уролбой МИРСАНОВ

Сафо МАТЧОН
Шукурилло МАРДОНОВ
Камаладин МАТЯКУБОВ
Раъно ОРИПОВА
Бахтиёр РАХИМОВ
Фуркат РАЖАБОВ
Арзы ПАЗЫЛОВ
Барлықбай ПРЕНОВ
Дилшода САПАРБАЕВА
Феруза САПАЕВА
Зайниддин САНАҚУЛОВ
Қаххор ТУРСУНОВ
Амина ТЕМИРБЕКОВА
Нурзода ТОШЕВА
Куанишбек ТУРЕКЕЕВ
Тажибай УТЕБАЕВ
Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ
Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ
Амангелди КАМАЛОВ
Воҳид КАРАЕВ
Гулмира ҚАРЛЫБАЕВА
Ризамат ШОДИЕВ
Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Тармиза ХУРВАЛИЕВА
Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ
Гулрухсор ЭРҒАШЕВА
Гавхар ЭШЧАНОВА
Қонысбай ЮСУПОВ

МАЗМУНЫ

ТИЛ ХАМ ЭДЕБИЯТ

Истамова Ш.М., Шарипова М.Б. Алишер Навоийнинг литеронимик муаммо санъатидан фойдаланиш маҳорати	6
Nurova F.K. O'zbek tilida to'liqsiz fe'llar	12
Xoliyovov B.H. Nofilologik oliy o'quv yurtlarida ingliz tili leksik kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari	16
Nuriddinova N. Ergonimlarning lisoniy maqomi	21
Otabayev M.N. The role of games in teaching english	25
Majidova G. Strategies for developing students' critical thinking skills in teaching foreign languages	29
Tangatov B.B. The importance of storytelling in teaching english	34
Rahimov A.B., Abdullaev Z. Modern technologies in the process of teaching foreign languages in higher educational institutions	37
Rahimov A.B. Teaching foreign languages in technical higher educational institutions (on integrated approach)	43

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Shamiyeva O.R. Глобаллашув жараёнида ёшлар таълими ва тарбиясига оид масалалар	48
Tosheva N.T. Ta'lim tizimini modernizatsiyalash jarayonida o'qituvchilarning innovatsion pedagogik faoliyatlarini tashxislash turlari va prinsiplari	57
Sobirova Sh.U. Ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati	67
Камилова Г.А. Экологик маданиятни ривожлантиришнинг дидактик тизимини такомиллаштириш	74
Musinova A. S. Qanday qilib talabalarni oliy o'quv yurtlarining ijodiy birlashmalari, to'garaklari va bo'limlariga jalb qilish kerak	79
Adhamjonova H.A. Talabalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning pedagogik mexanizmlari	89
G'ulomjonova Z.A'. Talabalarda muloqot madaniyatini shakllantirish afzalliklari	95
Abdullaeva U.T., Ongarov M.B. Talabalarning bilim ko'nikma va malakalarini shakllantirishda kommunikativ boshqaruvning zarurati	100
Norinov M.U. Multimediya vositalari asosida kasbiy kompetensiyani rivojlantirishning ijtimoiy va pedagogik jihatlari	107
Abdurahmonova D.Sh. Multimediali zamonaviy o'qitish vositalaridan foydalanishning didaktik jihatlari	112
Турдиев Ж. Р. Индивидуал таълим муҳитида талабаларнинг дидактик компетенцияларини ривожлантиришнинг педагогик-психологик жиҳатлари	119
Хамраева Г.Р. Олий таълим муассасалари талабаларини дарс машғулотлари жараёнида рақамли компетенцияларини баҳолаш усуллари	125
Yusupova A.P. Dual ta'lim shaklining ta'lim dasturlarini ishlab chiqishning o'ziga xosligi	132
Mavlonov N.Sh. Ta'lim tashkilotini boshqarishda innovatsiyon yondashuvlarni joriy etish imkoniyatlari	140
Shayzakova N.S. Zamonaviy ta'limda bo'lajak o'qituvchilarning deontologik malakasini rivojlantirishning ahamiyati	145
Do'stov S. Tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchi ekologik tafakkurini shakllantirish metodikasi	150
Jumanov A.A., Isamidinova Z. G'. Natijaga yo'naltirilgan uzluksiz ta'limni joriy etish tendensiyalari	157
Xasanov M. Professional ta'lim muassasalari bitiruvchilarini rakobatbardoshligini shakllantirish	162



Hayitova I.I. Talabalar mustaqil ishining tashkiliy-uslubiy ta'minotini hozirgi holati va uning muammolari	169
Aliqulov A.B. O'quv maqsadli mobil web – ilovalar va ularning imkoniyatlari	182
Абдуллаева Н. А. Эргономические подходы к образовательной среде в совершенствовании познавательного-профессиональных компетенций будущих учителей начального образования	191
Mirzakarimova M.M. Issues of youth entrepreneurship development in clil education	196

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲАМ РУЎХИЙЛИҚ ТИЙКАРЛАРИ, ТАРИЙҲ, ФИЛОСОФИЯ

Tajibayeva M.T. Farobiy pedagogik ta'limotini o'rganish orqali o'quvchilarda insonparvarlik, vatanparvarlik g'oyalarini shakllantirish	202
Казакова Р.М. Захириддин Мухаммад Бабур - автор замечательного произведения «Бабурнаме»	208

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Qurbonov G'.G'. To'g'ri chiziqlarning burchak koeffitsiyentli hamda uning turli tenglamalari	212
Турданов К., Палуанова А. Физика дарсини ўқитишда оддий турмуш мисолларидан фойдаланиш	218
Сейтмуратова Г. Применение технологии виртуальной реальности в преподавания астрономии в школе	222
Ешбаева М. Роль геймификации в повышении вовлеченности школьников в процесс обучения физике	228

БАСЛАЎЧИ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТЎРБИЯ

Salaeva M. S., Shamuratova S.Q. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni kitobga bo'lgan qiziqishini uyg'otish usullari	234
Odinaboboyev F.B. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy hunarmandchilikni rivojlantirish orqali kasbiy tarbiya berish	239
To'raqulov A. R., Abdullayeva K.M. Bolalarni ma'naviy yetuk qilib tarbiyalashda "ijtoimoiy odoblar" asaridan foydalanishning imkoniyatlari	245
Shonazarova S.R. Boshlang'ich sinf tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida geografik tushunchalarni takomillashtirishning xususiyatlari	252
Boboyev F.A. Ta'limni modernizatsiya qilish sharoitida maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarining kasbiy faoliyati tendensiyalari	257
Aliyeva F.Z. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim berishda interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati	263
Ortiqova D.M. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga savod o'rgatishda o'qish darslarini ahamiyati	268
Boboqulova D.M. O'quvchilarda tadbirkorlik mexanizmini rivojlantirishda ota-ona va o'qituvchi boshqaruvidagi hamkorlik	272
Pardayeva G.J. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativ fikrlashga o'rgatishning o'ziga xosligi	282
Eshpo'latova J.E. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda yangi avlod darsliklarining o'rni	286
Panjiyeva M. Mahalliy materiallar orqali tabiatshunoslikka oid bilimlarni takomillashtirish usullari	292
Ergasheva O. J. Ta'limda rag'batlantirish metodlari	301
Turayev A. M. Masofaviy ta'lim sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari	309
Elmurodova I.A. Boshlang'ich sinflarda o'quv jarayonini fanlar integratsiyasi usullari	318

Djumayeva Z. 4-sinfda tabiiy fanlarni o'rta osiyo mutafakkirlari merosidan foydalanib o'qitish metodikasi	323
Kadirova D.N. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiylashuv jarayonida mulqot funksiyalarining o'rmini	330
Hasanova S.K. PIRLS xalqaro tadqiqoti uchun matnlarni tanlab olish va baholash jarayonlarini tashkil etish	339
Melieva D.O'. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil ishlash ko'nikmalarini innovatsion yondashiv asosida takomillashtirish	344
Utegenova D. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq madaniyatini shakllantirish asoslari	351

ТАСВИРИЙ САЪНАТ

Raximov R.N. Musiqa madaniyati darslarida milliy cholg'ularning o'rni va ahamiyati	355
Artiqov E.R. An'naviy xonandalikda tovush paydo qilinishi organlarining faoliyati va ularning tuzilishi	358
Shamsiyev Sh.I. "Musiqa ta'limida talabalarining kompetencyasini rivojlantirish metodikasi" (xor dirijyorligi fani misolida)	364
Alayeva Z.M. Zamonaviy o'zbek estradasi va uning tarbiyaviy ahamiyati	371
Mamurova D.I. Chizmachilik fanining mustaqil ta'limda kompyuter dasturlarda foydalanishning ahamiyati	378
Гулбоев А.Т. Арт-педагогика как инновационное образовательное направление	386

ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ХАМ СПОРТ

Мамбетқасимова Қ. Жоқары билимлендириў системасында дене тәрбиясы хәм спорт кәнигелериниң теориялық таярлығын кәлиплестириў имканиятлары	400
Qaljanov R. 13-14 jas voleybol oyinshilariniñ tezlik sapasin hareketli oyinlar jardeminde rawajlandiriv	406
Adilshaev P. M. Bokshhi iskerliginiñ fiziologiyaliq xarakteristikalari	412
Alxamov M.R. Kurashshilardin oqiw shinigiwlarin rejelestirivdin ahmiyeti ham onin türleri	421
Jumaniyazov Q. T., Mirzambetov P. Sh., Utegenov M. B. Kishi mektep jasindağı balarlarga futbol tobin tebiwdi úyretiw ózgeshelikleri	426
Urazov R.D. Dene tárbiyası sabagında gúres sport túrinin xalıq-aralıq dárejesine kóteriliw tariyxın úyreniw	431
Orazimbetov S. J., Mirzambetov P.Sh. Futbol uynining mazmuni va rivojlanish bosqichlari	435
Nasirov P.I., Eshbaev A.J. Yengil atletika darslarini ta'lim muassasalarida tashkil etish va o'tkazish	440
Xudayorov D.D. Kurash sportining o'ziga xosligi va talabalarga o'qitishda asosiy qo'llaniladigan texnologiyalar	444
Adilshaev P. M. Boksta musobaqalarning turlari va musobaqa faoliyati	449
Xudayorov D.D. Kurashda qo'llaniladigan mashqlar va ularning bajarilish tartiblari	456
Saidova Sh.D. Tennis o'yinini va tennischilarning asosiy psixologik fazilatlarini rivojlantirish xususiyatlari	460
Сайдулов З.В. Қўп йиллик таёргарликнинг бошланғич ихтисослик боскичида спортча юрувчиларни машғулот жараёнини такомиллаштириш	465
Serimbetov Q. O. Velosportda texnikani o'rgatish uslubi	473
Maxmudov V.V., Omarova A.M. Zamonaviy voleybolning dolzarb masalalari	480
Djamilova N.N. Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish	488



Эрур холинг хаёлидин оқарғон кўзларим гўё.

Қуюбтур килки сунъ ул нуктани кўзлар қаросидин. (Нш, 357-б.)

Кўз оқариши хушсизликка, жоннинг танани тарк этишига ишора. Шоир ёрга бўлган самимий севгисини “Менинг жон тарк этган кўзларим холинг хаёлидан, рухсоринг шавқидан қайта ёришади”, – дейиш орқали баён этган. Бу билан ошиқ умри маъшуқа ёди билан маъно касб этади, демоқчи шоир. Байтда бундан ҳам кучлироқ фикрий зарба бор: шоир ёрга қарата «Сен мендан узоқлашма, чунки сендаги хол менинг кўзларим қорачиғидан бино бўлган. Мендан узоқ кетсанг, кўзларимдан нур, танамдан жон кетади», – дейди.

Сўзнинг имловий хусусиятидан келиб чиқиб айтсак, агар کۆز сўзидаги “зе” ز ҳарфи нуктасиз ёзилса, у кўр رۆк сўзи бўлади. Ана шу бетақрор фикр “хол” ва “нукта” тушунчаларини ўзаро қиёслаш асосида юзага чиққан.

Ёзилгон «жон» анингдекким, алифсиз, нуктасиз бўлмас,

Эрур холу кадинг бу зору хаста жонинда. (Нш, 303-б.)

Тавсифи: «жон» جَوْن сўзи ёзилганда, алиф ۱ ва нукта ишлатилмаслиги мумкин бўлмаганидек, хаста жоним сенинг холинг ва қадринг шарофати туфайли тирикдир». Байт мазмуни юқоридаги парча моҳияти билан уйғун. Бунда ҳам ошиқ маъшуқа васлисиз тирик юролмаслиги ва шод бўлолмаслиги таъкидланган.

Холу хаттидинки, ҳар бирининг бир ўзга холи бор.

Хат юзинда нуктадек мушкин хатт узра холи бор. (Бв, 98-б.)

Ёр холу хаттини таъриф этишга киришган шоир бу байтда ҳам ҳарф санъатининг нуктага ишора кўринишидан усталик билан фойдаланган. Байтда «хат» ط ва «хатт» ت сўзларининг шаклдошлиги (омонимлиги) дан фойдаланиб, тажнис санъати ҳам яратилган. Биринчи «хат» طёзув маъносини берса, иккинчи «хатт» ت лаб устидаги майин тукчаларни англатади.

Чун дедим: «холинг била кўз мардумининг холи бор»,

Деди улким «хол дейсен, нуктасиз ҳам хол эрур». (Ғс, 178-б.)

Байтда шоир ёр холини кўз мардуми (қорачиғи)га ўхшатиб, бу билан аввалги байтларда назарга ташланганидек, маъшуқа ошиқ учун кўз қорачиғидек ардоқли ва ҳаётбахш эканлигини яна бир қарра таъкидлайди. Аммо байтнинг иккинчи мисрасида маъшуқанинг ошиқ изҳорига жавоби ҳам акс этган. Ҳарф санъати имкониятидан фойдаланган шоир маъшуқа нутқини ташбеҳ билан зийнатлаш учун тасхиф имкониятидан фойдаланади. Маъшуқанинг фикрича, ошиқ изҳорида муболаға бор. Чунки араб



ҳарфлари орқали ифода этилган «дол»¹ сўзида нукта бўлмаганидек, ёр холини қорачиққа ўхшатишга ҳам ҳожат йўқ.

Адабиётлар:

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Учинчи том. Фаройиб ус-сиғар. Т.: «Фан» нашриёти. 1988. –Б.575.
2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Учинчи том. Наводир уш-ша-боб. Т.: «Фан» нашриёти. 1989. –Б.526.
3. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Учинчи том. Бадоеъ ул-ва-сат. Т.: «Фан» нашриёти. 1990. –Б.528.
4. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Учинчи том. Фавойид ул-ки-бар. Т.: «Фан» нашриёти. 1990. –Б.555.
5. Садриддин Айний . Куллиёт. Жилди II. Китоби якум. –Душанбе: 1963.
6. Ҳайитметов А. Навоийнинг адабий-танқидий қарашлари. –Т.: Фан, 1959.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada Алишер Навоийнинг муаммо жанрида баракали ижод қилганлиги, адибнинг айниқса, ўз асарларида литеронимик муаммодан фойдаланиш маҳорати xususida soʻz yuritiladi. Литеронимлар “Хазойин ул-маоний” куллиёти таркибига кирган асарлари мисолида таҳлилга тортилган.

РЕЗЮМЕ

В данной статье говорится об успешном творчестве Алишера Навои в жанре “муаммо”, умении писателя использовать литературные проблемы в своих произведениях. Литеронимы анализируются на примере произведений, вошедших в сборник «Хазайин ул-Маони».

SUMMARY

This article talks about Alisher Navoi's successful creation in the problem genre, the writer's ability to use literary problems in his works. Literonyms are analyzed on the example of the works included in the «Khazayin ul-Maoni» collection.



O‘ZBEK TILIDA TO‘LIQSIZ FE’LLAR

Nurova F.K.

*Buxoro davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti
kafedrasida katta o‘qituvchisi*

Tayanch so‘zlar: to‘liqsiz fe‘l, edi, ekan, emish, emas, esa, mustaqil fe‘llar, analitik shakllar, shaxs-son qo‘shimchalari, fonetik sharoitlar, noturg‘un.

Ключевые слова: глагол несовершенного вида, было, было, было, было, было, есть, самостоятельные глаголы, аналитические формы, суффиксы лица, числа, фонетические состояния, неустойчивые.

Key words: imperfective verb, was, was, was, was, was, is, independent verbs, analytical forms, person-number suffixes, phonetic states, unstable.

O‘zbek tilshunosligida fe‘lning analitik shakllari o‘rganilishi, asosan, XX asrning 40-50-yillaridan avj oldi. Dastlab o‘zbek tilida harakat tarzi shakllari tavsifiy usullar asosida ko‘makchi fe‘llar atamasi ostida atroficha o‘rganilgan. Tilshunosligimizda bu borada S.Ferdaus, G.Sharipov, S.Akbarov, T.Almamatov, ishlarini hamda A.Kononov, A.G‘ulomov, A.Hojiev, U.Tursunov, J.Muxtorov, B.Jo‘raev kabi tilshunoslarning o‘quv qo‘llanma hamda maqolalarini alohida qayd etish joiz. Ko‘makchi fe‘llar mavzusida o‘rganilgan bu ishlar orasida akademik A.Hojievning “O‘zbek tilida ko‘makchi fe‘llar” va “To‘liqsiz fe‘llar” monografiyalari alohida e‘tiborga molik. Tadqiqotchi o‘zining mazkur monografiyalarida turkiy adabiyotlarda, jumladan, o‘zbek tilshunosligida ham o‘sha vaqtga qadar yuritib kelingan qo‘shma fe‘l, yordamchi fe‘l, ko‘makchi fe‘l kabi istilohlar mohiyatini ochib berib, ulardan yagona ko‘makchi fe‘l atamasi mohiyatga yaqinroq kelishini izohlab beradi va tilshunoslik atamalari har xilligidagi muammolardan biriga oydinlik kiritdi. Shuningdek, u qozoq tilida edi to‘liqsiz fe‘lini ko‘makchi fe‘llar qatoriga kiritgan tilshunos I.Mamanovning fikriga e‘tiroz bildirib, uni ko‘makchi fe‘llar sirasidan chiqargani holda, to‘liqsiz fe‘l sifatida ko‘rsatib o‘tadi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida fe‘l va fe‘l bo‘lmagan so‘zlar bilan qo‘llanib ularga fe‘lning munosabat shakllari ma‘nosini olishda ko‘maklashadigan edi,



ekan, emish, emas, esa kabi soʻzlar toʻliqsiz feʼllar sirasiga kiritilgan. Bularidan esa toʻliqsiz feʼli bogʻlovchiga aylangan. Toʻliqsiz feʼlning edi, ekan, emish shakllari ham harakat maʼnosiga ega emas. Ular mustaqil feʼllarga qoʻshilib turli maʼnolarni ifodalaydi hamda mustaqil feʼllarni har xil grammatik vazifalarga xoslaydi.

Tilshunos olim A.Hojiyev oʻzining “Toʻliqsiz fellar” monografiyasida toʻliqsiz feʼllar xususida juda ham koʻplab qimmatli maʼlumotlarni berib oʻtadi. Jumladan, E- fe,ʼli hozirgi vaqtda turkiy tillarning birortasida ham mustaqil maʼnoga ega emasligini, lekin uning aslida mustaqil maʼnoga ega boʻlganligi qonuniy va bu narsa turkologik adabiyotlarda ham qayd etilganligini taʼkidlab oʻtadi. Til tarixiga oid manbalarda mazkur feʼlning boʻlishsizlik affiksi (-ma), shuningdek, -kan, -mish, -di affikslaridan boshqa forma yasovchilarni qabul qilganligi ham uning aslida mustaqil maʼnoga ega boʻlganligidan dalolat berishini dalillar bilan ochib beradi:

Til tarixiga oid faktlar, shuningdek, e- oʻzagidan yasalgan edi, ekan kabi formalarning hozirgi tildagi maʼnolari toʻliqsiz feʼlning aslida faqat ruscha «быть» degan maʼnoni emas, balki “являться”, “существовать” kabi maʼnolarni ham ifodalaganini koʻrsatadi 2. Edi, ekan, emish formalari bildiradigan maʼnolarning kelib chiqish asosini belgilashda toʻliqsiz feʼlning ana shu maʼnolari va unga qoʻshilgan affiksning maʼno xususiyatidan kelib chiqish kerak boʻladi, deydi u oʻzining monografiyasida.

Bugungi tilshunoslarimiz ham olimning mazkur qarashlaridan doimiy foydalanib keladilar hamda toʻliqsiz feʼllar yuzasidan berilgan maʼlumotlarga tayanadilar.

Toʻliqsiz feʼllar ot, sifat, son, olmosh kabi mustaqil soʻzlar bilan ham, mustaqil feʼllar bilan ham qoʻllana oladi:

Kasbingiz oʻqituvchi ekan;

Uning yoqtirgan rangi qizil edi;

Yillar davomida yelib-yugurib topgani shu edi;

U uygʻonganda soat besh edi;

Qadimiy buyumlaringiz koʻp emish

Bizning asosiy vazifamiz oʻqish ekan;

Toshkentdan kelgan ekan kabi.

Feʼlning analitik shakllaridan biri boʻlmish toʻliqsiz feʼl har bir shaklining oʻziga xos xususiyati bilan birga ularning har biri uchun umumiy boʻlgan xususiyatlar ham bor:

1) toʻliqsiz feʼllar mustaqil lugʻaviy maʼnoga ega emas. Bu feʼllar tarixan mustaqil maʼnoli boʻlgan, lekin hozirgi paytda oʻz maʼnosini yoʻqotib, yordamchi feʼlga aylangan;



2) to'liqsiz fe'l o'zicha harakat bildir olmasligi sababli fe'llarga xos bo'lishsizlik, daraja, zamon kabi ma'nolarga va bu ma'noni ifodalovchi shakllarga ega bo'la olmaydi;

3) garchi shaxs-son qo'shimchalari to'liqsiz fe'lga qo'shilsa-da, ular bildirgan shaxs ma'nosi to'liqsiz fe'lga emas, balki mustaqil fe'lga tegishli bo'ladi: yozar emish+man, yozar emish+san; mehnatkash ekan+man, mehnatkash ekan+san, o'qigan edi+m, o'qigan edi+ng. Shu bois to'liqsiz fe'l yakka holda tuslanmaydi.

Mazkur fe'l shakllaridagi birinchi tovush (e) noturg'un, u ma'lum fonetik sharoitlarda, boshqa tovushning ta'siri bilan boshqa tovushga o'tishi yoki tushib qolishi mumkin. Bu hodisa, ayniqsa, og'zaki nutqda ko'p uchraydi:

boshlar+di, boshlar+kan, boshlar+mish – (e) tovushi tushib qolgan;

boshlagan+akan, boshlasa+ydi – (e) tovushi boshqa tovushga o'tgan

Ular ba'zan nutqimizda ketma-ket qo'llanilishi ham mumkin: Bu yerda navbat kutib turish shart emas ekan.

To'liqsiz fe'llar gapda yetakchi fe'llardan keyin qo'llanilishi va ma'no anglatmasligi bilan ko'makchi fe'llarga o'xshaydi.

Farqi:

Ko'makchi fe'llar faqat yetakchi fe'l bilan qo'llansa, to'liqsiz fe'llar barcha so'z turkumlari bilan qo'llana oladi: U hasad bilan emas, havas bilan yashashga odatlangan ekan

To'liqsiz fe'l shakllari uyushiq kesimlar uchun umumiy bo'lganda oxirgi kesim tarkibida qo'llanadi. Bu kesimlar turli shakldagi fe'llar, shuningdek, otlar bilan ifodalanishi mumkin: Oyim xontaxtaga engashgancha guruch tozalar, derazadan tushib turgan nurda yuzi rangsiz, dardchil ko'rinar, ingichka, uzun barmoqlari bilan shoshilmay guruch terib, yonidagi sirli tog'orachaga solar edi. (O'.Hoshimov, "Ikki eshik orasi")

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib to'liqsiz fe'llarning umumiy xususiyatlari:

1) mustaqil lug'aviy ma'noga ega emas.

2) nisbat, bo'lishsizlik, zamon kabi ma'nolarga ega emas.

3) shaxs-son qo'shimchalari ularga qo'shilsa ham, shaxs ma'nosi to'liqsiz fe'l qatnashgan butun birikmaga tegishlidir.

4) to'liqsiz fe'l qatnashgan birikma (asosiy fe'l+to'liqsiz fe'l) tarkibidagi to'liqsiz fe'lni har doim ham tushirib bo'lmaydi.

5) to'liqsiz fe'l tarkibidagi "e" tovushi tushib qolishi mumkin.

6) to'liqsiz fe'llar otlarga (keng ma'noda) ham, fe'llarga ham birika oladi. Ular ko'proq sifatdosh va ravishdoshga birikadi.

7) . Bir kesim tarkibida edi, ekan, emish to'liqsiz fe'llaridan bittasining qo'llanishi hozirgi o'zbek tilida asosiy holat hisoblanadi. Lekin, kam darajada



bo'lsa-da, bir kesim tarkibida ikki to'liqsiz fe'ning qo'llanish hollari uchraydi: ... bu sukunat yana qancha davom etarekan? (M. Ismoilov, «Farg'ona tong otguncha»)

Bunday hollarda, odatda, to'liqsiz fe'llarning biri yoki har ikkisi qisqargan holda qo'llanadi: aytarmidiykin kabi: Ana xolos, bu odam meni tanirmidi ekan?... sharmanda bo'ldim! (M. Ismoilov, «Farg'ona tong otguncha») Yoki bular kecha har joy-har joyda sochilib, burchak-burchakda yotgani uchun ko'zga ko'rinmasedimikin? (Y. Rahim, «Ixlos»)

Bir kesim tarkibida ikki to'liqsiz fe'ning qo'llanishi ham ancha yangi hodisa bo'lib, u ekan, emish formalari ma'no taraqqiyotining keyingi bosqichlarida yuz bergan.

8) bu fe'llar qator kelgan bir necha fe'ning oxirgisiga birikadi. To'liqsiz fe'llar gapda ko'pincha bog'lama (ega bilan kesimni bog'lovchi vosita) vazifasini bajaradi: Otasi shifokor, onasi o'qituvchi edi.

Adabiyotlar:

1. Алмаматов Т.А. Вспомогательные глаголы в узбекских народных говорах: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. -Т., 1978. - 16 с.
2. Акбаров С. Ўзбек тилида кўшма феъллар: Филол. фан. номз. дис. - Т., 1946. - 180 б.
3. Шукуров О. Ҳаракат тарзи шакллари парадигмаси: монография. - Қарши, 2017. -102 б
4. Холиқов Қ. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида ҳаракат феъллари: Фил. фан. номз. дисс. - Самарқанд, 1967. -274 б.
5. Сафарова Р. Лексик-семантик муносабатнинг турлари. - Т.: Ўқитувчи, 1996. - 47 б.
6. Неъматов Х., Бегматов Э., Расулов Р. Лексик микросистема ва унинг тадқиқ методикаси // Ўзбек тили ва адабиёти. - 1989. - № 6. - Б. 39-43.
7. Mengliyev B. O'zbek tilining struktur sintaksisi. - Qarshi: Nasaf, 2003. - 147 b.
8. Материалы координационного совещания по проблемам глагольного вида и сложноподчиненного предложения в тюркских языках // Вопросы грамматики тюркских языков. 24-27 сент. 1956 г. Алма-Ата, 1958. - С. 45-51.
9. Жўраев Б. Ҳозирги замон ўзбек тилида кўмакчи феълларнинг қўлланиши ва маъноси // Ўзбек тили грамматикаси ва пунктуацияси масалалари. - Т., 1953. - Б. 255 - 266.
10. Ҳожиёв А. Тўлиқсиз феъллар: монография. – Тошкент, 1970. -263 бет

РЕЗЮМЕ

Maqolada o'zbek tilida to'liqsiz fe'llarning ishlatilishi, mazkur fe'llarning o'rganilishi haqida fikr yuritiladi. Fe'ning analitik shakllaridan biri bo'lmish to'liqsiz fe'l har bir shaklining o'ziga xos xususiyati bilan birga ularning har biri uchun umumiy bo'lgan xususiyatlari ochib beriladi.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматривается употребление глаголов несовершенного вида в узбекском языке и изучение этих глаголов. Выявляется одна из аналитических форм глагола - неполный глагол, а также характерные черты каждой формы, общие для каждой из них.

SUMMARY

The article discusses the use of imperfective verbs in the Uzbek language and the study of these verbs. One of the analytical forms of the verb is revealed - an incomplete verb, as well as the characteristic features of each form that are common to each of them.